

Guliston shahar

Date : 23 Iyun, 2015



Akbarov Asqarali Ortiqovich

Lavozimi:

Guliston shahar hokimi



Sirdaryo Viloyati Hokimligi Veb sayti

Interaktiv xizmatlar, foto va videolavhalar, onlayn tarzda litsenziyalar olish uchun arizalar qabul qilish, Xaj Umra safarlari uchun onlayn tarzda arizalarni qabul qilish hamda Sirdaryo viloyati hayoti va unda yuz berayotgan yangiliklar haqida batafsil ma'lumotlar joy olgan.

<http://sirdaryo.uz>

Telefon:

0 (367) 225-0336, Faks: 0 (367) 225-4581

Email:

a.akbarov@umail.uz

[Biografiya](#)

- [Manzil va bog`lanish](#)
- [Rahbariyat qabul kunlari](#)
- [Mahallalar](#)

Manzil: Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Mustaqillik ko'chasi 35 uy

Telefon: 0 (367) 225-0336

F.I.Sh.	Lavozim	Hafta kunlari	Vaqt
Akbarov Asqarali Ortiqovich	Shahar hokimi	Shanba	09:00-11:00
Zununov Ali Maxmudovich	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari	Dushanba	09:00-13:00
Xujaevllyorjon Axmat o'g'li	Shahar hokimining o'rinbosari	Seshanba, Payshanba	09:00-13:00
Abdukarimova Yulduz Nazarqulovna	Shahar hokimining o'rinbosari	Chorshanba Juma	09:00-13:00

?	QFY nomi	Aholi soni	Oilalar soni
1	Ahillik MFY	3528	995
2	Yangi hayot MFY	6500	1670

3	Bo`ston MFY	8110	3430
4	Istiqlol MFY	4020	1500
5	Madaniyat MFY	3477	987
6	Muqimiy MFY	3221	843
7	Navbaxor MFY	4274	1552
8	Sayqal MFY	6100	1410
9	Taraqqiyot MFY	3920	840
10	Namuna MFY	7032	1296
11	Farxod MFY	6750	1783
12	Sh.Rashidov MFY	4225	1253
13	U.Yusupov MFY	3935	1141
14	T.Axmedov MFY	5176	1589
15	Baxor QFY	8534	1802
16	Do`stlik QFY	8060	2336
17	Ulug`obod QFY	4200	910

```
jQuery(function() {jQuery( "#tabs_492_0" ).posttabs({ tabname : "tabs_492_0", fade : "1", active : "", reload : "0", nav : "0", nexttext: "Keyingi »", prevtext: "« Avvalgi", enablecookie:"1" });})
```

Guliston shahri haqida

Guliston shahri 1961 yil 5 avgustda tashkil topgan bo'lib, umumiy maydoni 36.2 kv.km. Viloyatning ma'muriy-madaniy markazi Guliston shahri hisoblanib, unda 77.7 ming kishi istiqomat qiladi. Guliston shahri viloyatning Mirzaobod, Guliston va Boyovut tumanlari bilan chegaradosh. Guliston shahrida 3 ta QFY, 14 ta mahalla mavjud bo'lib, 2010 yil 1 yanvar holatiga band aholi soni 23.5 mingtani tashkil etib shundan 18.9 ming kishi moddiy ishlab chiqarishda va 4.6 ming kishi nomoddiy ishlab chiqarishda band.

Guliston shahrida viloyatning asosiy sanoat korxonalaridan "Sarruna T?kstil" QK, "Sarbont?ks" QK, "Guliston ekstraktyog" AJ hamda viloyat, shahar korxonalar tashkilotlar va muassasalar mavjud bo'lib, ularda aholining aksariyat qismi mahalliy ishlab chiqarishda.

Shahar hududidan o'tgan Katta O'zbek Trakti avtomobil yo'li shahar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. 2010 yilning 1 yanvar holatiga shahar bo'yicha jami 2374 ta xo'jalik yurituvchi sub?kmlar ro'yxatga olingan, 2228 ta kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

2009 yilda shahardagi sanoat korxonalarini tomonidan jami 39.7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 87.2 %ni tashkil etdi. Shuningdek 33.1 mlrd. so'm (82.3 %) xalq ist'moli mollari ishlab chiqarildi. 54.6 mlrd. so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi (140.0 %), 21.4 mlrd. so'mlik (130.9 %) qurilish ishlari amalga oshirildi. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti 9.3 mlrd. so'm (105.1 %), chakana savdo aylanmasi 100.9 mlrd. so'm (124.5 %), aholiga pulli xizmat ko'rsatish 58.2 mlrd. so'm (119.2 %), eksport xajmi 3.4 mln. AQSh dollari (150.2 %) va import 18.0 mln. AQSh dollari (121.8 %)ni tashkil etdi. 2009 yilning 1 yanvar holatiga jami 12 ta xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 8 tasi faoliyat yuritmoqda. 2009 yilda faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar tomonidan 1.5 mln AQSh dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilingan. Shuningdek kichik bizn?ni rivojlantirish uchun 2009 yil mobaynida jami 27.7 mlrd. so'm, shu jumladan, 11.1 mlrd. so'm qisqa muddatli va 16.6 mlrd. so'm uzoq muddatli kreditlar ajratildi.

2009 yilda o'rtacha oylik ish haqi 565.4 ming so'mni tashkil etdi. 2010 yil 1 yanvar holatiga shahar aholisi 99.3 % tabiiy gaz va 89.2 % ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Shuningdek, joriy yilda jami 5.1 km ichimlik suvi va 1.9 km gaz quvurlari tortilib foydalanishga topshirildi. Shaharda 18 ta umumta'lim maktablari bo'lib ularning barchasi zamonaviy maktablar sarasiga kiradi. Shaharda yangi ish o'rinlari yaratish Dasturining bajarilishi 2004 yilda 93.6 %ni, 2005 yilda 101.8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda bu ko'rsatkich 105.0 va 2007 yilda 103.1 %ni, 2008 yilda 101.5 %, 2009 yilda 100.0 %ni tashkil etdi. Turar-joy binolari bilan ta'minlanishi 2004 yilda 13.6 ming kv.m, 2007 yilda 19.0 ming kv.mni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda 21.7 ming kv.m, 2009 yilda 21.8 ming kv.mni tashkil etdi.

Shahar bo'yicha tashilgan yuk miqdori 2004 yilda 2135.1 ming tonna, 2005 yilda 2424.5 ming tonna, 2006 yilda 2452.2 ming tonna, 2007 yilda bu ko'rsatkich 1943.7 ming tonna, 2008 yilda 2628.8 ming tonna, 2009 yilda 3221.8 ming tonnani tashkil etdi. Huddi shunday 2004 yilda 25580.8 ming yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 2007 yilda 7887.2 ming kishi, 2008 yilda 25956 ming kishi, 2009 yilda 20878.0 ming kishi yo'lovchi tashilgan.



Sirdaryo Viloyati Hokimligi Veb sayti

Interaktiv xizmatlar, foto va videolavhalar, onlayn tarzda litsenziyalar olish uchun arizalar qabul qilish, Xaj Umra safarlari uchun onlayn tarzda arizalarni qabul qilish hamda Sirdaryo viloyati hayoti va unda yuz berayotgan yangiliklar haqida batafsil ma'lumotlar joy olgan.

<http://sirdaryo.uz>
